

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
Davlat test markazi

A X B O R O T N O M A

2021

1 - son

Toshkent

“AXBOROTNOMA”

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Davlat test
markazi
ilmiy - uslubiy jurnali.
Bir yilda 4 marta chiqadi.
O‘zbekiston Matbuot va axborot
agentligida 2007 yil 19 aprelda qayta
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Guvohnoma № 0247

Ta‘sischi:
Davlat test markazi

Tahririyat hay‘ati:

Baratov Akmal
(bosh muharrir)
Gulyamov Sur‘at
Muhammadiyev Murodulla
Karimov Madjit
Sodiqov Qosimjon
Ibragimov Abdug‘ofur
Boboyev Orziqul
(bosh muharrir o‘rinbosari)
Qayumov Abduxalil
Mirvaliyev Zoid
(mas‘ul kotib)

Bosishga ruxsat etildi: 26.03.2021
Shartli bosma tabog‘i: 5,5
Nashriyot hisob tabog‘i: 5,3
Adadi 100. Buyurtma № 1 - A - 21

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Davlat test
markazi bosmaxonasida chop etildi.

Nashrga tayyorlovchilar:
A. Baratov, Z. Mirvaliyev

Muharrir:
Z.Shakarov

Kompyuterda sahifalovchi:
O. Boboyev

Tahririyat manzili:

100084, Toshkent shahri,
Bog‘ishamol ko‘chasi, 12-uy.

© “Axborotnoma”

MUNDARIJA

Кириш.....	3
D.Alimov, A.Sulaymonov, M.Ermamatov, A.Baratov, Z.Mirvaliyev. Arab tilidan test sinovlari natijalarining statistik tahlili asosida test topshiriqlari sifatini baholash	4
N.Lutfiyev. Testning validligini ta‘minlashning o‘ziga xos muhim xususiyatlari	16
J.Iskandarov, M.Mo‘minov. Respublika oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun o‘tkazilgan test sinovlari natijalari bo‘yicha raqamli tahlillar (2020-2021-o‘quv yili, davomi)	22

KIRISH

“Ахборотнома” илмий - услубий журналининг ушбу сонида Давлат тест маркази ходимлари томонидан олиб борилган илмий - услубий ишлар натижалари ҳақида иккита мақола ва республикамиз олий таълим муассасаларига ўқишга кириш учун ўтказилган тест синовлари натижалари таҳлиллари берилган.

Мақолада араб тилидан тест синовлари натижалрининг статистик таҳлили асосида тест топшириқлари сифатини баҳолаш таҳлиллари ҳамда тестнинг валидлигини таъминлашнинг ўзига хос муҳим хусусиятлари ҳақидаги маълумотлар келтирилган.

Шунингдек, 2020/2021 ўқув йилида бакалаврият таълим йўналишларига талабалikka қабул қилиш учун ўтказилган тест синовлари ва унинг натижалари ҳақидаги таҳлилий маълумотлар ҳам келтирилмоқда.

Журналнинг ушбу сони таълим соҳасида фаолият олиб бораётган барча мутахассислар, педагоглар, шунингдек, абитуриентлар, ота-оналар ҳамда кенг жамоатчилик учун мўлжалланган.

ARAB TILIDAN TEST SINOVLARI NATIJALARINING STATISTIK TAHLILI ASOSIDA TEST TOPSHIRIQLARI SIFATINI BAHOLASH

^{a)}**Davronbek Mamasoliyevich Alimov, ^{a)}Akmal Asqarovich Sulaymonov,**
^{a)}**Mirshod Djumakulovich Ermamatov, ^{b)}Akmal Abdumajitovich Baratov,**
^{a)}**Zoid Zohidovich Mirvaliyev**

^{a)}*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
 Davlat test markazi, 100084, Toshkent sh., Bog‘ishamol k., 12.*

^{b)}*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi huzuridagi Ilmiy-
 o‘quv amaliy markazi, 100084, Toshkent sh., Bog‘ishamol k., 12*

Qisqacha mazmuni: Maqolada arab tili bo‘yicha bilimlarni baholash uchun ishlab chiqilgan test variantlari sifatini aniqlash bo‘yicha test sinovi natijalarining klassik hamda zamonaviy test nazariyasi asosida tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: test topshiriqlari, test topshiriqlari kitobi, to‘g‘ri javob, testning klassik nazariyasi, zamonaviy test nazariyasi, ishonchlilik, qiyinlik darajasi.

Kirish

Test variantlarining sifatini aniqlashda test sinovi natijalarining statistik tahlilini olib borish muhim ahamiyatga ega. Oxirgi yillarda Davlat test markazida test topshiriqlari ishlab chiqilgandan so‘ng, ularni aprotatsiyadan o‘tkazib, test sinovi natijalari testning klassik va zamonaviy nazariyasi asosida statistik tahlil qilinib, test topshiriqlarining sifatini yaxshilash maqsadida ekspertlarga tavsiya berish ishlariga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘z navbatida ekspertlar tomonidan statistik tahlil natijasiga asosan test topshiriqlari takomillashtirilib borilmoqda.

O‘zbekistonning sharq mamlakatlari bilan o‘zaro aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yetuk mutaxassislarni tayyorlash oliy ta‘lim muassasalariga iqtidorli yoshlarni saralab olish bilan chambarchas bog‘liq. 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab, oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishda sharq tillaridan biri hisoblangan arab tilidan test sinovlarini o‘tkazish tizimi joriy etildi va birinchi marotaba arab tili fanidan test sinovlari o‘tkazildi.

Arab tili fanidan test variantlari avvaldan tayyorlanib tasdiqlangan test tavsifi asosida 10 ta variantda shakllantirilgan bo‘lib, shundan 3 tasi test sinovida ishlatildi. Test tavsifi arab tilining orfografiya va fonetika, morfologiya, sintaksis bo‘limlari bo‘yicha bilimlarni hamda o‘qib tushunish ko‘nikmasini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan. Arab tili fanidan shakllantirilgan test variantlari respublikadagi 23 ta oliy ta‘lim muassasasining 38 ta bakalavriat ta‘lim yo‘nalishiga qabul uchun o‘tkazilgan test sinovlarida foydalanildi. Test variantlarini generatsiya qilish va test topshiriqlari kitobining elektron nusxalarini shakllantirish maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Arab tili alifbosining o‘ziga xosliklarini inobatga olib, matn yozish esa o‘ngdan chapga qarab amalga oshirilishi sababli test topshiriqlari kitobining elektron

nusxasini shakllantirish uchun maxsus dastur ishlab chiqilgan. Davlat test markazida ishlab chiqilgan dasturning tatbiqi bo'yicha [1] manbada tanishish mumkin.

Maqolaning I va II bo'limlarida mos ravishda arab tili fanidan shakllantirilgan test variantlarining klassik va zamonaviy test nazariyasi asosidagi statistik tahlilini keltiramiz. Klassik test nazariyasi bilan [2], o'zbek tilida [3], zamonaviy test nazariyasi bilan esa [4-7], o'zbek tilida [8] manbalarda tanishish mumkin.

I. Arab tili bo'yicha test natijalarining klassik nazariya bo'yicha tahlili

Arab tili fani bo'yicha oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul test sinovida qo'llanilgan test variantlari natijalari testning klassik nazariyasi asosida tahlil qilindi. 1-jadvalda arab tili fanining 1-3-varianti bo'yicha olingan statistik tahlil ma'lumotlari keltirilmoqda. Ularda fandan test sinovi ballarining o'rtacha qiymati, medianasi, modasi, standart og'ishi, dispersiyasi, diapazoni, minimum, maksimum qiymatlari va test sinovi ballarining taqsimoti (gistogrammada normal taqsimot bilan birga) keltirilgan. Shuningdek, eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lgan ishonchlilik tahlili (alfa) bo'yicha ham tahlil natijalari keltirilgan.

1-jadval

Arab tili fanidan test sinovi natijalari.

Statistika	1-variant	2-variant	3-variant
Qatnashganlar	178	299	168
O'rtacha qiymat	12,71	13,53	14,32
Mediana	11,00	10,00	17,00
Moda	10	8	13
Standart og'ish	6,041	7,622	6,862
Dispersiya	36,490	58,096	47,094
Asimmetriya (skewness)	0,559	0,751	0,311
Ekssess (kurtosis)	-0,400	-0,747	-1,006
Diapazon	27	29	27
Minimum	0	1	3
Maksimum	27	30	30

1-rasmda arab tili fanidan test sinovi natijalarining gistogrammasi berilgan bo'lib, gistogrammadan ko'rinib turibdiki, test topshiriqlarining individual ballari taqsimoti normal taqsimotdan farq qiladi, faqatgina 3-variantda normal taqsimotga nisbatan yaqin chiqqan (1-variantda moda – 10 va o'rta qiymat -12,71 bir-biriga yaqin emas, 2-variantda moda – 8 va o'rta qiymat -13,53 bir-biriga yaqin emas va 3-variantda moda – 13 va o'rta qiymat -14,32 bir-biriga yaqin). Bu holat natijalar turli guruhda test topshirgan abituriyentlarga tegishli ekanligi bilan tushuntiriladi. Klassik test nazariyasi asosida test natijalari tahlil qilinganda, natijalar guruhlarga bog'liq bo'ladi. 1-3-variantlar to'g'ri javoblarning taqsimotini o'zaro va standart normal taqsimot bilan taqqoslash uchun ular o'rtacha qiymati 0 va standart og'ishi 1 bo'lgan birlikka ($\pm 3\sigma$, $\pm 2\sigma$, $\pm \sigma$) keltirildi. 1-rasmda $z_N = \frac{x-\mu}{\sigma}$ - standart birlikka keltirilgan to'g'ri javoblar

soni, x – sinaluvchilarning umumiy ballari, μ - ularning o‘rtacha bali, σ – standart og‘ish, P_N – esa to‘g‘ri javoblar chastotasining ulushi. 1-rasmda 1-3-variantlarga mos ravishda a), b) va c) rasmlar to‘g‘ri keladi.

Taqsimot qanchalik normal taqsimotga yaqinligini ko‘rsatish uchun taqsimotning assimetriyasi (skewness) va eksessi (kurtosis) hisoblandi. Manfiy eksess taqsimot normal taqsimotga nisbatan tekisroqligini bildiradi, ya’ni taqsimot maksimumi pastroq va taqsimot chizig‘ining oxirlari (dumlari) qisqaroq bo‘ladi.

Umuman, normal taqsimotga yaqinlikni vizual ko‘rish uchun kvantil-kvantil chizmasini ko‘rib chiqish mumkin. Empirik nuqtalar to‘g‘ri chiziqqa qanchalik yaqin bo‘lsa, taqsimot shunchalik normal taqsimotga yaqin bo‘ladi. 1-rasmning o‘ng tomonida berilgan rasmlardan 3 ta test variantining kvantil-kvantil chiziqlari keltirilgan. Rasmdan ko‘rinishicha, 1- va 3-variantlarda z-qiymatlar taqsimoti 2-variantdagi z-qiymatlar taqsimotiga nisbatan normal taqsimotga yaqinroqligini ko‘rish mumkin.


Arab tili fani variantlari test topshiriqlarining **ishonchlilik koeffitsiyenti** Kronbax alfasi 2-jadvalda keltirilgan. 2-jadvaldan ko‘rinadiki, Kronbax alfasi barcha variantlarda deyarli bir xil chiqqan. Testning klassik nazariyasiga ko‘ra alfaning qiymati 0,8 dan yuqoriligi ushbu test variantlarining ishonchliligi yaxshiligini ko‘rsatadi.

2-jadval



Arab tili fanidan test variantlarining
Kronbax alfa koeffitsiyentlari

T.r	Variant	Kronbax alfa koeffitsiyenti
1.	1-variant	0,834
2.	2-variant	0,905
3.	3-variant	0,882



a)



b)



c)



1-rasm. Arab tilidan test sinovi natijalari gistogrammasini standart normal taqsimot bilan taqqoslamasi; a) 1-variant, b) 2-variant, c) 3-variant

Test topshiriqlariga qo'yiladigan asosiy talablardan yana biri topshiriqning qiyinligi bo'lib, topshiriqning qiyinligi ko'rsatkichini aniqlash usullaridan biri topshiriqning to'g'ri javoblar salmog'ini aniqlashdan iborat. Test topshiruvchilar tomonidan test topshirig'iga berilgan to'g'ri javoblar salmog'i qancha yuqori bo'lsa, topshiriq shuncha oson, aksincha, berilgan to'g'ri javoblar salmog'i qancha kam bo'lsa, topshiriq shuncha qiyin bo'ladi.

Quyidagi formula bilan tanlanma o'rtacha qiymatining tanlanma taqsimotining (sampling distribution of sample mean) standart og'ishini baholash mumkin [7]:

$$\sigma_{\bar{x}} = \frac{\sigma}{\sqrt{n}},$$

bu yerda $\sigma_{\bar{x}}$ - tanlanma o'rtacha qiymatining tanlanma taqsimotining standart og'ishi, $\bar{x}$ - tanlanma o'rtacha qiymati, n - tanlanma o'lchovi, σ - umumiy to'plam standart og'ishi.

Bunday baholashda umumiy tanlanma standart og'ishi va o'rtacha qiymati aniqlanmagan, lekin ishonchlilik oralig'ini taxminiy baholashda tanlanma standart og'ishi va o'rtacha qiymatidan foydalansa bo'ladi [9,10]. O'rtacha qiymatning 95

foizlik ishonchlilik oralig'i tanlanma o'rtacha qiymatlarining normal taqsimotida o'rtacha qiymatdan $\pm 2\sigma$ uzoqlikda bo'lishini hisobga olsak, 1-3-variantlar uchun mos ravishda quyidagi 95 foizlik ishonchlilik oralig'ini hisoblab topish mumkin: **12,71 $\pm$ 0,91**, **13,53 $\pm$ 0,88** va **14,32 $\pm$ 1,06**. Yuqoridagi natijalardan umumiy to'plam ishonchlilik oraliqlari bir-biriga juda yaqin ekanligini ko'rish mumkin.

Pedagogik o'lchovlar bo'yicha mavjud ilmiy ishlarni o'rganish natijasi test topshirig'i qiyinligini baholash uchun turlicha shkalalar tanlanishi mumkinligini ko'rsatdi [11]. Ko'p hollarda qo'llaniladigan aprior (nazariy) shkalalardan birini etalon deb qaradik. Test topshiruvchilar tomonidan *i*-test topshirig'iga berilgan to'g'ri javoblar foizi **W** deb belgilandi.

3-jadval

To'g'ri javoblar salmog'ining shkala bo'yicha taqsimoti

Test sinovi natijalari, W (%da)	Qiyinligi
$0 \leq W \leq 25$	Qiyin
$25 < W \leq 75$	O'rtacha qiyinlikda
$75 < W \leq 100$	Oson

Test sinovlari natijalariga ko'ra har bir test topshiriqlari bo'yicha to'g'ri javob berganlar salmog'i bo'yicha qiyinchilik darajasi aniqlandi. 4-jadvalda test topshiruvchilarning arab tili fanidan shakllantirilgan test variantlaridagi test topshiriqlariga to'g'ri javob berganlar foizi bo'yicha ma'lumot taqdim etilmoqda. Bu yerda, **T/r** – test variantidagi test topshirig'ining tartib raqami, **b** – nazariya bo'yicha aniqlangan qiyinlik darajasi.

4-jadval

Arab tilidan test topshiriqlarining qiyinlik darajasi

T/r	W	b	T/r	W	b	T/r	W	b
1-variant			2-variant			3-variant		
1	60,1	2	21	65,2	2	21	73,2	2
27	60,1	2	19	57,5	2	1	70,8	2
9	56,2	2	22	54,5	2	17	62,5	2
24	56,2	2	20	54,2	2	18	62,5	2
19	54,5	2	30	53,2	2	9	61,9	2
25	54,5	2	28	52,2	2	19	61,3	2
28	52,2	2	16	51,5	2	26	61,3	2
4	48,9	2	23	50,5	2	20	60,1	2
29	47,2	2	27	50,5	2	22	60,1	2

26	46,1	2	18	49,2	2	27	58,9	2
22	45,5	2	24	47,7	2	7	57,7	2
30	45,5	2	9	47,5	2	4	54,8	2
8	43,3	2	29	47,2	2	28	54,8	2
2	42,1	2	4	45,8	2	29	53,0	2
21	42,1	2	1	45,5	2	23	50,0	2
13	41,6	2	12	44,5	2	25	50,0	2
15	41,6	2	14	43,1	2	10	41,7	2
20	41,6	2	3	42,8	2	5	41,1	2
14	39,3	2	8	42,8	2	8	38,7	2
11	37,6	2	10	42,8	2	30	38,7	2
5	36,5	2	13	42,8	2	13	36,9	2
6	36,5	2	26	42,1	2	16	36,9	2
23	36,0	2	2	40,1	2	3	34,5	2
7	34,8	2	5	40,1	2	14	33,9	2
10	34,8	2	6	38,5	2	24	33,9	2
18	34,3	2	7	35,5	2	15	33,3	2
16	28,7	2	15	34,1	2	11	29,8	2
12	28,1	2	17	32,1	2	12	28,6	2
3	23,0	3	25	31,8	2	2	28,0	2
17	21,9	3	11	27,4	2	6	23,2	3

Sinaluvchilarning har bir test topshirig‘idan olgan ballarining ularning umumiy ballari bilan korrelyatsiyasi kuchli va kuchsiz qobiliyatlarni to‘g‘ri ajratish darajasini ifodalaydi. Masalan, yuqori qobiliyatlilar qiyinlik darajasi past bo‘lgan test topshirig‘iga javob beraolmasdan, past qobiliyatlilar shu test topshirig‘iga javob bergan holda, test topshirig‘idan kutilgan natijaga erishilmaydi. Test topshirig‘ining maqsadini hisobga olganda, bu ularning ishonchliligi bilan birga validligi uchun ham muhim rol o‘ynaydi. Biserial koeffitsiyentlarini hisoblab, ular to‘g‘risida xulosalar qilish mumkin: agar ular 0,1 va 0,25 orasida bo‘lsa “qayta ko‘rib chiqish zarur”, 0,25 – 0,5 oralig‘ida “qoniqarli” va 0,5 dan katta bo‘lsa “yaxshi” hisoblanadi.

Misol uchun 5-jadvalda 1-variant test topshiriqlarining biserial korelyatsiya koeffitsiyentlarini keltiramiz. Jadvaldan ko‘rinishicha, faqat 23-test topshirig‘ining biserial korrelyatsiya koeffitsiyenti manfiy, 1-, 4-, 9-, 13-, 14-, 24-, 25-, 26-, 27-, 29-test topshiriqlarining biserial koeffitsiyenti 0,5 dan katta, 3- va 10-test topshiriqlarining 0,1 va 0,25 orasida, qolganlari 0,25 va 0,5 oralig‘ida joylashgan.

5-jadval

Biserial korrelyatsiya koeffitsiyentlari

1	2	3	4	5
0,589	0,400	0,173	0,533	0,271
6	7	8	9	10
0,236	0,382	0,481	0,523	0,167
11	12	13	14	15

0,380	0,350	0,597	0,576	0,346
16	17	18	19	20
0,282	0,393	0,330	0,364	0,400
21	22	23	24	25
0,472	0,466	-0,020	0,630	0,596
26	27	28	29	30
0,514	0,515	0,314	0,610	0,498

II. Zamonaviy test nazariyasi asosida tahlil.

Arab tili fani bo'yicha test natijalarining Rash modeli bo'yicha tahlili

Rash modeli asosida aniqlangan arab tili fanidan test topshiriqlari qiyinlik darajalari 6-jadvalda keltirilgan. Bu yerda T/r – variantdagi test topshirig'ining tartib raqami, b – qiyinlik darajasi, $P(x=1|z=0)$ – o'rtacha qobiliyatli sinaluvchining i -elementga (test topshirig'iga) to'g'ri javob berish ehtimolligi. Bu yerda x - tasodifiy o'zgaruvchi bo'lib 0 yoki 1 qiymatni qabul qiladi, z -qobiliyat o'zgaruvchisi.

6-jadval


Rash modeli bo'yicha aniqlangan qiyinchilik darajalari

Arab tili 1-variant			Arab tili 2-variant			Arab tili 3-variant		
T/r	b	$P(x=1 z=0)$	T/r	b	$P(x=1 z=0)$	T/r	b	$P(x=1 z=0)$
27	-0,490	0,62	21	-0,850	0,70	21	-1,252	0,78
1	-0,490	0,62	19	-0,452	0,61	1	-1,111	0,75
9	-0,300	0,57	22	-0,300	0,57	17	-0,656	0,66
24	-0,300	0,57	20	-0,283	0,57	18	-0,656	0,66
25	-0,220	0,55	30	-0,232	0,56	9	-0,625	0,65
19	-0,220	0,55	28	-0,181	0,55	26	-0,594	0,64
28	-0,113	0,53	16	-0,147	0,54	19	-0,594	0,64
4	0,046	0,49	23	-0,096	0,52	22	-0,532	0,63
29	0,126	0,47	27	-0,096	0,52	20	-0,532	0,63
26	0,180	0,46	18	-0,028	0,51	27	-0,472	0,62
30	0,206	0,45	24	0,057	0,49	7	-0,411	0,60
22	0,206	0,45	9	0,057	0,49	4	-0,261	0,56
8	0,315	0,42	29	0,074	0,48	28	-0,261	0,56
21	0,369	0,41	4	0,144	0,46	29	-0,171	0,54
2	0,369	0,41	1	0,161	0,46	23	-0,022	0,51
13	0,396	0,40	12	0,213	0,45	25	-0,022	0,51
20	0,396	0,40	14	0,283	0,43	10	0,399	0,40
15	0,396	0,40	13	0,300	0,43	5	0,430	0,39
14	0,507	0,38	3	0,300	0,43	8	0,555	0,36
11	0,591	0,36	10	0,300	0,43	30	0,555	0,36
6	0,649	0,34	8	0,301	0,43	16	0,650	0,34
5	0,649	0,34	26	0,336	0,42	13	0,650	0,34
23	0,677	0,34	2	0,443	0,39	3	0,781	0,31


7	0,736	0,32	5	0,443	0,39	24	0,813	0,31
10	0,736	0,32	6	0,535	0,37	14	0,813	0,31
18	0,765	0,32	7	0,704	0,33	15	0,845	0,30
16	1,073	0,25	15	0,781	0,31	11	1,051	0,26
12	1,106	0,25	17	0,900	0,29	12	1,123	0,25
3	1,418	0,20	25	0,920	0,28	2	1,159	0,24
17	1,492	0,18	11	1,194	0,23	6	1,466	0,19

Qiyinlik taqsimotining standart normal taqsimot bilan solishtirish uchun 2-rasmda 1-3-variantlarning qiyinlik darajalari taqsimoti berildi. Rasmda $z_b = \frac{b - \mu_b}{\sigma_b}$, b – qiyinlik darajasi, μ_b – qiyinlikning o‘rtacha qiymati, σ_b – standart og‘ish, P_b – ma’lum bir qiyinlikdagi test topshiriqlari ulushi. a), b) va c) rasmlar 1-3-variantlarga mos keladi.


a)



b)



c)



2-rasm. Qiyinlik darajalari taqsimotini standart normal taqsimot bilan solishtirish

Rash modeli bo'yicha test topshiriqlarining qiyinligini shartli ravishda 3 xil qiyinlik darajasiga bo'lish mumkin: aniqlangan qiyinlik darajasi -1 dan 1 gacha bo'lsa, test topshirig'ining qiyinlik darajasi o'rtacha qiyinlik, 1 dan 3 gacha bo'lsa, o'rtacha qiyinlikdan yuqori, -3 dan -1 gacha bo'lsa, o'rtacha qiyinlikdan past deb hisoblash mumkin, lekin bu modelda qiyinlik darajasi uzluksiz qiymatlar qabul qilishini unutmaslik zarur. Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, arab tili fanidan ishlab chiqilgan test topshiriqlarining 1-variantidagi 26 ta test topshirig'ining qiyinlik darajasi o'rtacha qiyinlikda, 4 ta test topshirig'ining qiyinlik darajasi o'rtacha qiyinlikdan yuqori. Ushbu variantda qiyinlik darajasi o'rtachadan past bo'lgan test topshiriqlari yo'q.


2-variantdagi 29 ta test topshirig'ining qiyinlik darajasi o'rtacha qiyinlik atrofida, 1 ta test topshirig'ining qiyinlik darajasi o'rtacha qiyinlikdan yuqori hamda topshiriqning qiyinlik darajasi o'rtachadan yuqori bo'lgan test topshiriqlari mavjud emas.

3-variantdagi 24 ta test topshirig'ining qiyinlik darajasi o'rtacha qiyinlik atrofida, 4 ta test topshiriqlarining qiyinlik darajasi o'rtacha qiyinlikdan yuqori hamda 2 ta test topshiriqlarining qiyinlik darajasi o'rtachadan past.


6-jadvalga ko'ra, arab tili fani bo'yicha ishlab chiqilgan test topshiriqlarining 1-variantida Rash modeli bo'yicha 27, 2-variantida 21, 3-variantida esa 21-test topshiriqlari eng oson, 1-variantida 17, 2-variantida 11, 3-variantida esa 6-test topshiriqlari eng qiyin ekanligini ko'rish mumkin. Bu 3-rasmdagi element tavsifi chiziqlari (ETCh) va ma'lumot chiziqlarining (EMCh) o'zaro joylashuvidan ham yaqqol ko'rinadi, ya'ni a) va d) rasmlarda 1-variant, b) va e) rasmlarda 2-variant, c) va f) rasmlarda 3-variantning element tavsifi va ma'lumoti chiziqlari keltirilgan. 2.a)-rasmda eng qiyin 17-test topshirig'i pastdan birinchi uzuq-uzuq chiziq, eng oson 27-test topshirig'i yuqoridan birinchi uzluksiz chiziq, 2.b)-rasmda eng qiyin 11-test

topshirig'i pastdan birinchi uzoq-uzoq chiziq, eng oson 21-test topshirig'i yuqoridan birinchi uzluksiz chiziq, 2.c)-rasmda eng qiyin 6-test topshirig'i pastdan birinchi uzoq-uzoq chiziq, eng oson 21-test topshirig'i yuqoridan birinchi uzluksiz chiziqlari aks ettirilgan.

3-rasmdagi har bir elementning (test topshirig'ining) ma'lumot chiziqlarini tahlil qilib, bu to'g'risida ko'proq ma'lumot olish mumkin. EMCh kengligi har bir element har xil qobiliyatli test topshiruvchilar haqida qanchalik ko'p ma'lumot berishi mumkinligini ko'rsatadi. ETCh balandligi esa ma'lumot miqdorini bildiradi. Rash modelida elementning turli qobiliyatlarni ajratish xususiyati (diskriminativligi) bir xil deb qaraladi. Demak, barcha test topshiriqlarining turli qobiliyatlarni ajratish xususiyati bir xil deb qaralganda, test topshiriqlari test topshiruvchilar haqida beradigan ma'lumot miqdori bir xil, lekin ular turli xil qobiliyat oralig'idagi ma'lumotlardir. Masalan, 3.d)-rasmda arab tili fanidan ishlab chiqilgan test topshiriqlarining 1-variantdagi 17-test topshirig'i qobiliyatli test topshiruvchilar haqida ko'p ma'lumot bersa, 27-test topshirig'i esa ko'proq qobiliyati pastroq test topshiruvchilar haqida ma'lumot beradi. Xuddi shuningdek, 2-variantdagi 11-test topshirig'i qobiliyatli test topshiruvchilar haqida ko'p ma'lumot bersa, 21-test topshirig'i esa ko'proq qobiliyati pastroq test topshiruvchilar haqida (3.e)-rasm), 3-variantdagi 6-test topshirig'i qobiliyatli test topshiruvchilar haqida ko'p ma'lumot bersa, 21-test topshirig'i esa ko'proq qobiliyati pastroq test topshiruvchilar haqida (3.f)-rasm) ma'lumot beradi. Bu rasmdan shu narsa ko'rinib turibdiki, har xil qobiliyatli test topshiruvchilarning qobiliyatini baholash uchun shakllantiriladigan variantda albatta har xil qiyinlikdagi test topshiriqlari bo'lishi shart.



3-rasm. Element xarakteristikasi va ma'lumoti chiziqlari




4-pachm. Test ma'lumot chiziqlari

4-rasmda 1-3-variant test ma'lumoti chiziqlari birgalikda keltirilgan: uzluksiz chiziq 1-variantga, uzun uzuq chiziq 2-variantga va qisqa uzuq chiziq esa 3-variantga to'g'ri keladi. Rasmdan uchala testning qobiliyat bo'yicha ma'lumot taqsimoti bir-biridan kam farq qilishini va bu test variantlarining paralelligi uchun muhim. 3-rasmdagi element tavsifi chiziqlari va element ma'lumoti chiziqlaridan ham, shuningdek, 6-jadvaldagi o'rtacha qobiliyatlarining ma'lum elementga

javob berish ehtimollarini solishtirib ham xuddi shunday xulosa qilish mumkin.

Test uchun umumiy ma'lumot miqdorini 30 ga teng deb olinsa, 1-, 2- va 3-variantlar uchun (-3:0) qobiliyat oralig'idagi ma'lumot miqdori mos ravishda 11,28 (37,60 foiz), 12,34 (41,15 foiz) va 12,72 (42,41) foiz), (0:3) qobiliyat oralig'idagi ma'lumot miqdori esa mos ravishda 15,37 (51,23 foiz), 14,53 (48,43 foiz) va 13,75 (45,83 foiz)ga teng.

Arab tilidan shakllantirilgan test topshiriqlarining 2-3-variantlarida umumiy 4 ta test topshiriqlarining kesishmasi mavjud. Bundan zamonaviy test nazariyasida isbotlangan guruh invariantligini tekshirib ko'rish mumkin. Buning uchun 2- va 3-variantlarning kesishadigan 4 ta test topshirig'ining z-ballarini bitta grafikda chizish qulay. 5-rasmda to'g'ri chiziq 2 ta variant qiyinliklari teng bo'lganda hosil bo'ladigan nazariy chiziq, nuqtalar esa arab tilidan 2- va 3-variantlarda kesishadigan test topshiriqlarining hisoblangan qiyinliklari keltirilgan. Kesishadigan test topshiriqlari soni kam bo'lsada, ushbu misolda ularning qiyinliklari to'g'ri chiziq bo'ylab joylashish tendensiyasi mavjudligini ko'rish mumkin. Umuman olganda test variantlarining hammasida kesishadigan test topshiriqlarining bo'lishi ularning qiyinliklarini birgalikda bir marta hisoblashda (bir xil shkalada) aniqlash imkonini beradi [4-8].



5-rasm. Ikkita guruhdan olingan test topshiriqlari qiyinliklari invariantligi

Tahlil asosida quyidagicha xulosalar qilishimiz mumkin:

Zamonaviy test nazariyasi bilan olingan element va test tavsifi hamda ma'lumoti chiziqlari test tafsilotlari asosida shakllantirilgan test variantlarining parallelligini ta'minlashning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi.

O'rtacha qiyinlikdagi test topshiriqlari salmog'ini oshirish orqali test topshiruvchilar bilimini yanada aniqroq baholash mumkinligiga yana bir bor ishonch hosil qilindi.

Variantlarda kesishadigan test topshiriqlari bo'lsa, qiyinlik darajalarining guruh invariantligini tekshirish mumkinligi ko'rsatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] D.M.Alimov, A.A.Sulaymonov, M.Dj.Ermamatov, A.A.Baratov. Sharq tillaridan test topshiriqlari kitobini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish va xitoy tilidan test sinovlari natijalarining statistik tahlili. Toshkent sh., Axborotnoma, 2020 y., 4, 4-20.
- [2] Hambleton, R. K., and Jones, R. W. (1993). Comparison of Classical Test Theory and Item Response Theory and their Applications to Test Development. Educational Measurement: Issues and Practice, 12(3), 38-47.
- [3] Zakirova M.Sh. Test topshiriqlari sifatining statistik tahlili. Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Toshkent sh., 2019 y., 57 b.
- [4] Hambleton, R. K. and van der Linden, W. J. (1982), Advances in item response theory and applications: An introduction, Advanced Psychological Measurement, 6, 373-378.
- [5] Lord, F. M. (1984), Standard error of measurements at different ability levels, Journal of Fundamental Measurement, 21, 239-243.
- [6] Hambleton, R. K., Swaminathan, H., and Rogers, H.J. (1991), Fundamentals of item response theory. Newbury Park, CA: Sage.
- [7] Ivailo Partchev (2004), A visual guide to item response theory, Friedrich-Schiller-Universitat" Jena
- [8] M. Dj. Ermamatov (2020), Zamonaviy test nazariyasi asoslari, Uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Toshkent sh., 68 b.
- [9] Crocker L. and Algina J. (2008), Introduction to classical and modern test theory, Ohio: Cengage Learning.
- [10] Abdushukurov A.A. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika (2010). Toshkent, "Universitet".
- [11] Popov D.I., Popova Ye.D. Ekspertiza kachestva testovыx zadaniy: Uchebnoye posobiye. Moskovskiy gosudarstvennyy universitet. Moskva: MGUP, 2008. 84 s.

Quality estimation of the test items based on statistical analysis of test results on the Arabic language

Davronbek Mamasoliyevich Alimov^{a)}, Akmal Asqarovich Sulaymonov^{a)}, Mirshod Djumakulovich Ermamatov^{a)}, Akmal Abdumajitovich Baratov^{b)} and Zoid Zakhidovich Mirvaliev^{a)}

^{a)}State Test Center under the Cabinet of Ministers of Republic Uzbekistan,
Tashkent 100084, Bogishamol st. 12.

^{b)}Scientific-study Practical Center under the State Test Center under the Cabinet of Ministers of Republic Uzbekistan

Abstract: The analysis of the test results on the Arabic language based on the classical test theory and item response theory is carried out in order to determine the quality of the test variants.

Key words: test items, test-book, correct answer, classical test theory, item response theory, reliability, difficulty

TESTNING VALIDLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS MUHIM XUSUSIYATLARI

Lutfiyev Nasimbek G'ofurovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi,
100214, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12.

Qisqacha mazmuni: Ushbu maqolada tilni bilish darajasini baholashda ko'p ishlatiladigan testlarning validligi va ishonchliligiga erishish uchun test jarayonidan oldingi bo'ladigan bosqichlar mohiyatini nazariy jihatdan yoritib berish haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kontekst, validlik, kontent, ishonchlilik, domen, Brayl, konstrukt validlik.

Yigirmanchi asr oxirlarigacha, "Cambridge ESOL" test topshiriqlarining ishonchliligiga, shuningdek, ko'proq milliy validlik xususiyatlariga katta e'tibor qaratib keldi. 1980-yillarda esa ishonchlilik va konstrukt validlik bir xil tenglikda ekanligi ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, TOEFL test mas'ullari esa faqatgina ishonchlilik xususiyatlariga e'tibor qaratganligi tufayli, validlikning ijtimoiy-kognitiv elementlarining haqiqiylikni anglab, tegishli ishlarni amalga oshirishni boshlashdi. Ammo tuzilayotgan testlarning validligiga asoslanuvchi

isbot kamligi yoki umuman mavjud emasligi bois testlarning nafaqat validligi, shuningdek, ishonchlilik darajasining birmuncha oqsab qolishiga sabab bo'ladi. Aksariyat test tuzuvchilar (tuzilgan) testlarning nazariy va amaliy validligini ta'minlash ahamiyatga molik ekanligini tushunsa-da, ulardan ozchiligi buning uddasidan chiqishadi [1]. Testning adolatliligini ta'minlash maqsadida, test tuzuvchilar amal qiladigan bir nechta qabul qilingan talablar mavjud. Test jarayoniga aloqador shaxslar, test jarayoniga bevosita tegishli bo'lgan talabgorlar va ota-onalar test tizimiga oid tushunchalarini oshirib, test tizimiga mas'ul shaxslardan kerakli ma'lumotlarni, ya'ni test topshiriqlarining validligi va ishonchliligini isbotlab beruvchi dalillarga oid ma'lumotlardan xabardor bo'lishi va shu o'rinda, mas'ul kishilar tomonidan bu kabi isbot va ilmiy yondashuvlar muntazam amalga oshirilishi kerak.

Test validligi ancha yillardan beri mavjud bo'lib kelayotgan tushuncha bo'lib, unga yondashish bir nechta olimlar va izlanuvchilar tomonidan turlicha va ba'zi o'rinlarda o'xshash bo'lib kelgan. Masalan, Kelly Lovel test topshiriqlari haqiqatan maqsad qilgan narsani o'lchab berayotgani bu validlik ekanligini ta'kidlaydi [2].

Shuningdek, Robert Lado test maqsad qilingan qobiliyatlarni o'lchaganligi haqidagi savol bilan murojaat qilganda [3], Kronbax agar shunday bo'lsa, testning validligiga shubha yo'q ekanligini ta'kidlab, uning fikrini bevosita ma'qullaydi.

Kronbaxning taklifiga ko'ra, har bir test yaratilayotganda uning maqsadlari aniq belgilab olinishi kerakligiga urg'u berib, konstrukt validlikka ishora qilayotganini sezish qiyin emas [4].

Yana bir qiziq fikrlardan biri shuki, validlik deganda test jarayoni yakunlangandan keyingi ishlab chiqilgan ma'lumotlar to'plami, yanada aniqlashtiriladigan bo'lsa, talabgorlarning til bilish darajasi va qobiliyati asosida to'plagan baholari tushuniladi. Demak, biror ma'lum test valid yoki valid emas deb xulosa qilishdan oldin testda qatnashgan talabgorlarning to'plagan ballariga e'tibor qaratgan ma'qulroq. Demak, testning validligini isbotlash albatta, yana ta'kidlash joizki, testga mas'ul kishilar tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Validlik bir nechta xususiyatlarni o'z ichiga oladi ammo biror xususiyat boshqasiga qaraganda ustunroq degan xulosadan yiroq bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu o'rinda Anastasi A. konstrukt validlik boshqalaridan ustunroq ekanligini va u boshqa validlik elementlarini o'z ichiga olishini ta'kidlab o'tadi [5].

Nazariyaga asoslangan validlikning ikki turi mavjud bo'lib ulardan biri test jarayonidan oldingi qilinadigan amaliy va nazariy malumotlar to'plami, ikkinchisi esa o'z-o'zidan anglashiladiki, test jarayoni tugagandan so'ng to'plangan ma'lumotlardir [6].

Shuni ta'kidlash joizki, oldingi yillarda bu kabi xususiyatlarga e'tibor kam qaratilib, urg'u faqat grammatika va leksika kabi bo'limlarga berilgan. Test

jarayonidan olingan statistik tahlil dolzarbligi tobora oshib, testdan oldingi va keyingi qilinadigan izlanishlar qanchalik muhimligini ko'rsatib berdi. Testdan oldin maqsad qilingan konstrukt qanchalik o'z vazifasini bajarganligini testdan keyingi statistik tahlil yordamida aniqlash mumkin. Ko'rinib turibdiki, bu ikki tur orasida uzviy bog'liqlik bor va bu har bir validlik tomon qo'yilgan qadamlarni aniqlashtirib beradi. Testning statistik tahlilining aniq va kutilgan natijasini qo'lga kiritish maqsadida testni rivojlantirish bosqichida konstruktarni belgilab olish va berilgan topshiriqlar shu konstruktga tekshirish uchun yetarli ekanligini belgilash lozim. Messik S. ta'kidlashicha, validlikka ikki narsa to'sqinlik qilishi mumkin. Birinchisi bu - konstruktga o'lchaydigan elementlar kamligi va ikkinchi turi -konstruktga o'lchashga mo'ljallangan savollar to'g'ridan to'g'ri shu konstruktga tegishli emasligidir [7].

Testni rivojlantirish mobaynida shu kabi muammolarning oldini olishga e'tibor qaratish kerak. Agar konstruktga o'lchaydigan element soni kam bo'lsa, bu o'qitish tizimiga salbiy ta'sir (backwash) qiladi; agar ma'lum bilim va qobiliyat testda sinab ko'rilmasa, o'qituvchi tomonidan o'rgatilmaligi mumkin. Agar biz sinchiklab o'qish qobiliyatini sinab ko'rib, tez o'qib matn ma'nosini tushunishga qaratilgan o'qish qobiliyatini tekshirmasak, biz haqiqatdan ham o'qish qobiliyatini to'liq tekshirib ko'ryapmizmi [8]?

Test tuzuvchilardan haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan turli bilim va ko'nikmalar asosida savollarni shakllantirish talab qilinadi. Aniqki, tilni amaliyotda qo'llash bir xil holatda emas, turli jarayonlarda sodir bo'ladi. Test yaratuvchilar testni shakllantirish jarayonida bilimi o'lchanishi kerak bo'lgan talabgorlar guruhidan kelib chiqib aniq va tushunarli ma'lumotlar tanlashi orqali kontekst validlikni ta'minlashi talab etiladi. Qisqa qilib aytganda, kontekst va amaliyot hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshirishda talab qilinadigan nazariy ijtimoiy-kognitiv modeli talab etiladi. Yuqorida aytib o'tilgan konstruktga o'lchaydigan savollar sonining yetarli darajada berilganligi validlikning boshqa turi, ya'ni kontent validlikni ta'minlab beradi.

Test topshiriqlari tekshirilayotgan domen konstruktlarini qay darajada qamrab olishi - bu kontent validlik deyiladi. Anastasi A. kontent validlikni ta'minlash maqsadida quyidagi fikrlarni olg'a suradi:

- o'lchanishi kerak bo'lgan domenning barcha xususiyatlari yetarli sondagi savollar va to'g'ri joylashuvi orqali qamrab olinganligini tizimli tahlil qilish kerak;
- o'lchanishi kerak bo'lgan domen test jarayoni o'tgandan so'ng emas, balki oldindan yoritib berilishi kerak [9].

Misol uchun, Siril Veir ta'kidlashicha, quyidagi bosqichlarda o'qish (reading) testining test o'tkazishdan oldingi bo'ladigan kontekst validligini isbotlab berish mumkin [10].

1. Bunda birinchi navbatda test topshiruvchi talabgorning e'tiborli jihatlarini inobatga olish kerak bo'ladi:

- a) jismoniy/fiziologik holat;
- b) psixologik jihati;
- c) tajribasi.

Bu tushunchalarni yanada yaxshiroq ochib berish maqsadida Berri O'Sullivanning izohiga etibor qaratish joiz [11].

1- jadval. Test yaratish bosqichida inobatga olish kerak bo'lgan talabgorga tegishli xususiyatlar

1- jadval.

Test yaratish bosqichida inobatga olish kerak bo'lgan talabgorga tegishli xususiyatlar

Jismoniy/fiziologik holati	Psixologik holati	Tajriba
Qisqa muddatli kasallik mavjudligi: <i>tish og'rig'i, shamollash kabilar.</i> Uzoq muddatli kasalliklar: <i>eshitish, gapirish, ko'rish qobiliyatiga oid.</i> Yoshi. Jinsi.	Xotirasi. Anglab tushunish metodikasi. Ta'sirchanlik darajasi. Diqqatni jamlashi.	Ta'limiy ma'lumoti. Testga tayyorligi. Test ishlash tajribasi. Kirishimlilik qobiliyati. Tekshirilishi maqsad qilingan tilda gaplashuvchi mamlakatda yashash yoki yashamasligi.

Testdan oldin talabgorlarning yoshi, jinsi, ta'limi to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish, turli toifadagi guruhlar o'rtasida farqlarning vujudga kelishining oldini olishga yordam berish kabi g'oyalar professor Berri O'Sullivan tomonidan ilgari suriladi. Agar qaysidir talabgorga jismoniy tarafdin yordam kerak bo'lsa, ularga test mobaynida kerakli yordam ko'rsatish talab etiladi. Bu kabi chora-tadbirlar testning validligini ta'minlashda muhim ro'l o'ynaydi. Bu yo'lda qilinayotgan bir nechta ishlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Taylor, L.B. ta'kidlaganidek [12], "Cambridge ESOL"

testlarida yoki Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan chet tillarini bilishni baholash, o'qituvchilar uchun oylik ustama belgilash va Prezident stipendiyasini qo'lga kiritish uchun o'tkazilgan testlarda ko'zi ojizlar uchun Brayl versiyasi shakllantiriladi.

Testni yaratishda talabgorga psixik jihatdan ham yondashish kutilgan natijani qo'lga kiritishda yordam beradi. Misol uchun, o'qish ko'nikmasini o'lchashda qo'llanadigan matnlar mavzu jihatdan talabgorga qiziq bo'lishi va talabgorlarning akademik qobiliyatiga mosligi talabgorda yaxshi taassurot uyg'otib, testni ishlash qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi.

2. Test variantini shakllantirish. Bu jarayonda quyidagi jihatlar e'tibor qaratiladi:

- a) maqsadni aniqlash;
- b) javob formatini shakllantirish;
- c) talabgorga qo'yilgan talablar;
- d) qiyinlik darajasini aniqlash;
- e) savollar tartibini belgilash;
- f) test topshirig'iga ajratilgan vaqtni belgilash.

Albatta, yuqorida eslatib o'tilgan vazifalar testning validligini ta'minlashda dolzarb o'rin tutadi. Ta'lim tizimidagi belgilangan aniq maqsadlarga erishish yo'lida baholashning o'z vazifasi va roli muhim sanaladi. Birgina test orqali test topshiruvchidan talab etiladigan bilim va ko'nikmalarni haqqoniy va aniq baholash orqali nafaqat ta'lim tizimi, balki talabgorning kelajakdagi rivojlanishiga ham baho berish (prediktiv validlik) mumkin. Baholashning yana bir dolzarb jihati shuki, u test topshiruvchilarning muayyan fanni o'zlashtirish jarayoni va shu bilan birga o'qituvchilarning ushbu fanni o'qitish jarayoniga ijobiy ta'sir etadi. Shunday ekan, ta'lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadida test tizimini ham a'lo darajada yo'lga qo'yish kutilgan natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Messick, S. Validity of test interpretation and use. In M.C. Alkin (ed.), Encyclopedia of Educational Research (6th edition). New York: Macmillan. (1992).
2. Kelley Lowel: Kelley, T. L. Interpretation of educational measurements. New York, NY: Macmillan. (1927).
3. Robert Lado. Linguistics and foreign language teaching 321, (1961).

4. Cronbach, L.J. Test validation. R.L. Thorndike (ed.), Educational Measurement (second edition). Washington DC: American Council on Education. (1971).
5. Anastasi, A. Psychological Testing (6th edition). New York: Macmillan. (1988).
6. Weir, C.J. Construct validity. In A. Hughes, D. Porter and C. Weir (eds.), ELT Validation Project: Proceeding of a Conference Held to Consider the ELTS Validation Project Report. The British Council and the University of Cambridge Local Examination Syndicate. (1988).
7. Messick, S. Validity. In R. Linn (ed.), Educational Measurement. New York: Macmillan, pp. 13–103. (1989).
8. Urquhart, A.H. and Weir, C.J. Reading in a Second Language: Process, Product and Practice. Harlow: Longman. (1998).
9. Anastasi, A. Psychological Testing (6th edition). New York: Macmillan (1988).
10. Cyril J. Weir. Language testing and validation (2005).
11. O’Sullivan, B. Towards a Model of Performance in Oral Language Testing. Unpublished PhD Dissertation. University of Reading. (2000).
12. Taylor, L.B. Responding to diversity: issues in assessing language learners with disabilities Paper presented at Language Testing Research Colloquium, Reading, 22–25 (2003).

RESPUBLIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA O'QISHGA KIRISH UCHUN O'TKAZILGAN TEST SINOVLARI NATIJALARI BO'YICHA RAQAMLI TAHLILLAR (2020-2021 o'quv yili)

Iskandarov J., Mo'minov M.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi,
100084, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Bog'ishamol k., 12-uy.*

Keltirilgan ushbu jadvalda ta'lim yo'nalishlari kesimida test topshiriqlarining to'g'ri hal qilish (echish) foizi bo'yicha tahlili taqdim etishda davom etamiz.

Ta'lim shakli: kunduzgi

Ta'lim tili: o'zbek

7-jadval

Ta'lim yo'nalishi	I блок					II блок				
	0_20	20_40	40_60	60_80	80_100	0_20	20_40	40_60	60_80	80_100
Navoiy konchilik instituti Nukus filiali										
5311000-Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha)	30,0	66,7	3,3	0,0	0,0	20,0	80,0	0,0	0,0	0,0
5311600-Konchilik ishi (faoliyat turlari bo'yicha)	25,9	68,7	4,8	0,7	0,0	32,0	63,3	4,8	0,0	0,0
5320200-Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jihozlash va avtomatlashtirish	35,9	62,5	1,6	0,0	0,0	37,5	56,3	6,3	0,0	0,0

Ta'lim yo'nalishi	I блок					II блок				
	0_20	20_40	40_60	60_80	80_100	0_20	20_40	40_60	60_80	80_100
5320400-Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha)	30,6	64,5	4,8	0,0	0,0	25,8	71,0	3,2	0,0	0,0
Geologiya fanlari universiteti										
5311800-Gidrogeologiya va muhandislik geologiyasi	23,7	59,2	11,8	3,9	1,3	15,8	76,3	7,9	0,0	0,0
5313300-Geologiya - qidiruv ishlari texnikasi va texnologisi	23,9	58,7	6,5	7,6	3,3	26,1	55,4	13,0	4,3	1,1
6000001-Geologik tasvirlash, foydali qazilma konlarini izlash va qidirish	20,0	52,5	10,0	10,8	6,7	17,5	61,7	15,0	4,2	1,7
